TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-iyul 144-10-138-Q/24 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 19-apreldagi 289-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 19-apreldagi 289-10-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi 204-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 19-apreldagi 289-10-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

2024-2025-yillarda yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarining bosqichma bosqich o‘zgarish grafigi;

2024-yil 1-maydan aholi uchun elektr energiyasi va tabiiy gaz bir oylik iste’molining “bazaviy meyorlari”;

ehtiyojmand oilalar ro‘yxatini shakllantirish va ularga tabiiy gaz hamda elektr energiyasi xarajatlarining bazaviy me’yordan ortiq iste’mol qilgan qismiga kompensatsiya to‘lab berilishi sxemasi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Statistika agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining yoqilg‘i-energetika resurslari narxlari o‘zgarishi munosabati bilan ayrim toifadagi iste’molchilarga ta’sirni yumshatishga qaratilgan quyidagi takliflariga rozilik berilganligi inobatga olinsin.

-Statistika agentligi tomonidan 2024-yil 1-mayga qadar yoqilg‘i-energetika resurslari narxlari oshishini hisobga olgan holda minimal iste’mol xarajatlari qiymatini qayta ko‘rib chiqish va e’lon qilish;

-quyidagi toifadagi iste’molchilar qilish (ehtiyojmand oilalar) uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlarni qoplash bo‘yicha vaqtincha kompensatsiya joriy etish;

a) “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalar, bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi oilalar;

b) Yagona reestrga kiritilmagan, “mahalla yettiligi” xulosasi asosida aniqlanadigan qo‘shimcha ehtiyojmand oilalar.

Bunda:

- “mahalla yettiligi” tomonidan shakllantirilgan qo‘shimcha ro‘yxatdagi ehtiyojmand oilalar soni tegishli mahalladagi Yagona reyestrga kiritilgan oilalar sonining 15 foizidan oshmasligi kerak;

- tuman bo‘yicha Yagona reyestrga kiritilgan oilalar sonining 15 foizidan oshmagan holda, mahallalar kesimidagi ehtiyojmand oilalar qo‘shimcha ro‘yxatiga o‘zgartirish kiritish mumkin.

4. Tuman mahallalar uyushmasi (A.Toshxo'jayev) “mahalla yettiligi” tomonidan ehtiyojmand oilalar ro‘yxati to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida “Inson” ijtimoiy xizmat markaziga taqdim etilishini ta’minlasin.

5. AT “Xalq banki” Zangiota filiali boshqaruvchisi J.Soliyev, tuman “Inson” ijtimoiy xizmat markazi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatga muvofiq 2024-yil 1-noyabrga qadar bank plastik kartasi mavjud bo‘lmagan ehtiyojmand oilalar vakiliga bepul asosda plastik kartalar ochib berilishini ta’minlasin.

6. 2024-yil 1-iyuldan boshlab yuridik shaxslarga yetkazib beriladigan elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to‘lovlar 100 foiz oldindan amalga oshirilishi belgilansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari G‘.Jo‘rayev hamda, “Elektr ta’minoti” tuman filiali rahbari K.Ergashevlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.E.RUSTAMOV**